



I BOB. AYOLLARNI HUQUQIY STATUSI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TUZILMASI.

Yuldasheva Xurshidabonu Muhammadovna. Andijon davlat pedagogiga instituti.
Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi). 2-kurs magistranti

1.1 Sharqda xotin-qizlar huquqlarining o'ziga xos jihatlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Biz huquqiy siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz", – deb ta'kidladi. Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Huquqiy tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Huquqiy tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida huquqiy tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda huquqiy tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining huquqiy tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya yetilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" [1], deb belgilangan. Demak, xotin-qizlarning gender (jinslararo) tengligining ham xalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqi asosi kafolatlangan. Jinslararo gender tenglik ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Gender tenglik – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy holat. "Gender" so'zi inglizcha "gender", lotincha "genus"



soʻzlaridan olingan boʻlib, "zot, jins, kelib chiqish" maʼnosini anglatadi. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan boʻlsa, ijtimoiy jihatdan ayol va erkaklarning jamiyatdagi oʻrnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning oʻz oʻrnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi huquqiy tenglikni taʼminlashda asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda huquqiy tenglikni taʼminlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yoʻlida muhim choralar koʻrildi. Huquqiy tengligi masalalari milliy qonunchiligimizda ham oʻz aksini topgan, yaʼni 2019-yil 2-sentabrda Oʻzbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"gi OʻRQ-562-son Qonuni qabul qilindi. Hujjat Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilindi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan 2019-yil 23-avgustda maʼqullandi.

Jinslararo tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan taʼlimdagi ijobiy siljishlarni alohida taʼkidlash kerak. Yaʼni 2017-yildan boshlab aksariyat oliy taʼlim muassasalarida turli mutaxassisliklar boʻyicha sirtqi boʻlimlar faoliyati tiklandi. Taʼlimning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan birga oliy maʼlumot olish imkoniyatini ham beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida: "Meni kishilarimizning ongida paydo boʻlgan stereotip koʻp oʻylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qoʻrgʻonining qoʻriqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, toʻgʻri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi yemas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik oʻzgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham boʻlishi kerak", – deb taʼkidlagan. Huquqiy tenglik boʻyicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini taʼminlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish boʻyicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uygʻunlashtirish bilan shugʻullanuvchi yangi Xotin-qizlar va huquqiy tenglik masalalari qoʻmitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qoʻllab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zoʻravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida zoʻravonlikdan jabr koʻrgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda oʻz joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi. Bu, oʻz navbatida, Sharqona huquqiy tengligining oʻziga xos huquqiy tomoni hisoblanadi. Mazkur yangi tashkil etilgan barcha institutsional mexanizmlar Oʻzbekiston Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi bilan birgalikda BMT Konvensiyasiga muvofiq ayollar huquqlari, huquqiy tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir. Taʼkidlash joiz, qabul qilingan normativ-meʼyoriy hujjatlar va amaliy chora tadbirlar Oʻzbekistonning huquqiy siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro meʼyor va standartlariga toʻliq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari boʻyicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Binobarin, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"gi va



"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlarning bajarilishini ta'minlash uchun "Yo'l xaritalari" va huquqiy tengligi bo'yicha milliy strategiya ham qabul qilingan.

Biologik jins va ijtimoiy jins differensiyasi 1935-yilda Polineziya orollarida o'smirlarning ijtimoiylashuvini tadqiq etgan amerikalik antropolog Margaret Mid tomonidan tahlil qilingan. Huquqiy tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liq. Insonlar tug'ilishi bilan ijtimoiylashadi, o'zi yashayotgan jamiyatning axloqi, fe'l-atvori, xulq me'yorlari, ijtimoiy determinantlari (lot. determinans – aniqlovchi)larga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o'zini tutishni o'rganadi. Insonlarga oila, maktab, professional-kasbiy muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxs umri davomida jinsga bog'liq ijtimoiy konstruksiyalar ta'sirida rivojlanadi. Masalan, o'g'il bolalar ongiga o'zlarining his-tuyg'ularini sezdirmaslik, jismoniy kuchni namoyon etish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rish kabi xulq-atvor me'yorlari singdiriladi. Uy mehnati esa, azaldan ayollarning zimmasidagi vazifa deb tushuntiriladi. Aksariyat barcha rivojlangan mamlakatlarda barqaror huquqiy taqsimotiga ko'ra, erkaklar mehnat bozorida, ayollar esa uy mehnati bilan band. Jahonning barcha qit'alarida uy ishlarining aksariyat og'irligi, ya'ni 70-75% ayollarning zimmasiga to'g'ri keladi. Huquqiy tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lsa-da, dunyoda huquqiy bilan bog'liq kamsitilish, huquqiy bo'yicha diskriminatsiya (lot. diskriminatio – farqlash), huquqlarning poymol etilishi, huquqiy asimmetriya (simmetriyaning bo'lmasligi yoki buzilishi) keng tarqalgan. Huquqiy asimmetriya ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligini anglatadi. Masalan, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik va o'rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida esa, ayollarning ustunlik qilishini ko'rish mumkin. 65% qizlar boshlang'ich va o'rta ta'limni o'g'il bolalarga qaraganda kam oladilar. Ilm-fan yoki injeneriya sohasida ayollar ishtirokining ko'rsatkichi past. Ish bilan ta'minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida ildam qadamlar qo'yilmoqda, birov muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bo'ylab ko'pchilik ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo'rvonliklarga qarshi huquqiy himoyaga muhtoj. Jins bo'yicha ish haqida tafovut dunyo miqyosida 23% ni qishloq joylarda 40% gacha yetadi. Ayollar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etsada, milliy parlamentlar a'zolarining 18,4% i ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Milliy parlamentda ayollarning ulushi o'rtacha 25% dan kam. Dunyo bo'yicha 17 ta davlat yoki hukumat rahbari ayol kishidir. Yevropada yirik kompaniyalarning atigi 3% ini rahbar ayollar boshqaradi. Ushbu transformatsiya jarayonlarini G'arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy tafakkurida ham ko'rish mumkin. G'arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy tafakkurida ham ko'rish mumkin. Suqrot shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqarolar huquqi haqidagi g'oyalari bilan yoshlar ongini zaharlashda ayblanib o'limga mahkum etilgan. Falsafaning otasi Platon ham o'z buyuk safdoshlari g'oyalariga sodiqligini namoyish yetgan holda "Ideal davlat" asarida bu qarashlarni yoqlab chiqqan. Platon erkak va ayol tabiati o'rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli



degan xulosaga keladi. Ayol o‘z xohishiga ko‘ra kasblarni tanlashi mumkin: musiqa, falsafa yoki boshqa kasblar, shu jumladan, harbiy ishlarni ham. Platon asarida "Ayolni ushbu qiyin va mas‘uliyatli vazifani bajarishga qodir deb hisoblash mumkinmi? Insoniyatning ayol qismi barcha masalalarda erkaklar bilan bir qatorda ishtirok yeta oladimi?" , – degan savollarni o‘rtaga tashlaydi. Platon o‘z davrida an‘ana, urf-odatlarining kuchli va uzoq muddatli ta‘siri natijasida "sho‘rva pishirish" va "yenagalik qilish"ga mahkum bo‘lgan xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga oid ushbu haqiqatni tasvirlab, muammoning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Rim davlat arbobi va huquqshunosi Yemiliy Papinian ayollarning jamiyatdagi mavqeyi to‘g‘risida yozadi: "Qonunchiligimizning umumiy qoidalariga ko‘ra, ayollarning mavqeyi erkaklarnikidan yomonroqdir" [6]. Ayol erkin bo‘lsa ham, fuqarolik huquqlariga ega emas edi. Masalan, u armiyada xizmat qila olmagan, yig‘ilishlarda ovoz berolmagan, davlat lavozimiga saylana olmagan, sudya yoki prokuror bo‘la olmagan, uchinchi tomonning advokati sifatida sud jarayonini o‘tkazish huquqiga ega bo‘lmagan. "Amerikada demokratiya" asarining muallifi, XIX asr fransuz gumanisti va faylasufi Aleksis de Tokvil shunday degan: "Ba‘zilar erkak va ayolning nafaqat tengligi, balki yaxlit ekanini ta’kidlaydilar. Ular erkak va ayolga bir xil huquqlarni beribgina qolmay, ularning zimmasiga bir xil majburiyatlarni ham yuklaydilar. Ular erkak va ayolning bir xil fikrlashi, mehnat qilishini istaydilar. Bu yaxshilikka olib kelmaydi, erkak va ayolning jins sifatida inqirozini keltirib chiqaradi, zaif erkaklarni va kuchli ayollarni paydo qiladi"7.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ahmadxo‘jaev H. T., Mirdadaev K. M Ayol– jamiyat , Ilm Ziyo,–Toshkent, 2014.
2. Atajonova D.S. Aellar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mas‘ul shaxslar mexnatini xuquqiy tartibga solishning xususiyatlari.Yurid.fan.buyicha fals.dok(PHD) dis.avtoref.-Toshkent-2018-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Xotin - qizlar huquqlarini ta‘minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘limi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 2022-yil 10-martdagi 263-sonli buyrug‘i.
4. O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2020-yil 10-iyun).
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T. Toshkent. 08.12.1992 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-sentyabrdagi O‘RQ-562-sonli qarori



7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2018-yildagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin - qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ – 146 - son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dasturi.
11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/35869/>.
12. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2004 yil, 21 – son, 251 – modda.
13. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020 y., 07/20/4862/1385-son.
14. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-sentyabrdagi O‘RQ-561-sonli Qonuni.
15. Ahmadxo‘jaev H. T., Mirdadaev K. M Ayol– jamiyat , Ilm Ziyo,–Toshkent, 2014.
16. Atajonova D.S. Aellar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mas‘ul shaxslar mehnatini xuquqiy tartibga solishning xususiyatlari. Yurid.fan.buyicha fals.dok (PHD) dis.avtoref.-Toshkent-2018-yil.
17. Norboyeva T.K.Sos.fan.dok....dis Uzbekistonda xotin kizlarni ijtimoiy ximoya kilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli.UZMU. Toshkent. 2020
18. Nasrullayeva X.Uzbekistonda xotin-kizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy taxlili Falsafa .fan.nomz...dis.-Toshkent-2000-B137
19. Soatova Sh. Gender tenglikka erishishning ahamiyati. 15.08.2020 4.
20. Abashidze A X Borba OON s diskriminatsiyey // Diskriminatsiya vne zakona Sb dok /Otv red A Ya Kapustin M.2003 S 15 ‘ Sm Kartashkin V A Prava cheloveka v mejdunarodnom i vnutrigosudarstvennom prave M,1995 S 34-35 5
21. Akimova Y.A. Konstitutsionniy prinsip ravnopraviya mujini i jenshini Pd. M., 2005. 174
Lynmarie Sardinha, Mathieu Maheu-Giroux, Heidi Stokl, Sarah Rachel Meyer, Claudia



Garcia-Moreno. Global, regional and national prevalence estimates of physical or sexual or both intimate partner violence against women in 2018.